O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBITEXNOLOGIYALAR VA OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGI INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № BD-60820100 2024 yil "10 04"	"TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

MADANIY O'RMONLAR

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	820000 – O'rmon xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi MADO'R1 1706	O'quv yili 2027-2028	Semestr VII	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Madaniy O'rmonlar	82	98	180

	Fanning maqsadi (FM)
	I. Fanning mazmuni
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad**-O'rmon xo'jaligida urug' chilikni va ko'chatchilikni yo'lga qo'yishni, joy sharoiti va daraxtlar biologiyasiga asoslanib madaniy o'rmonzorlarni barpo etishni o'rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, madaniy o'rmon barpo etish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllarnitirish vazifalarini bajaradi. **Fanning vazifasi**: madaniy o'rmonlarni loyihalashtirish; o'rmonlarni qayta tiklash va o'rmon resurslarini ko'paytirishni rejalashtirish va tashkil etish; tuproq va iqlim sharoitiga bog'liq holda madaniy o'rmonlarning joylashish sxemasi madaniy o 'rmonlar barpo etish agrotexnikasi o'rgatishdan iborat. Ta'limning innovatsion tizimini keng qo'llash, o'qitishning intrektiv uslublari va vositalaridan, zamonaviy axborot kommunikasiyalari hamda texnologiyalardan keng foydalanish

	Fan mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
	II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) 7-semestr
M1	**1-mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. O'rmon urug' chiligi**
	O'zbekiston Respublikasining o'rmon etishtirish borasidagi o'rmon xo'jaligi oldiga qo'ygan vazifalari. O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish yo'nalishida bakalavrlar tayyorlashda madaniy o'rmonlarning o'mi va ahamiyati. Kursning ilmiy asoslari va uning boshqa mutaxassisliklar va umumiy fanlar bilan bog'liqligi. Xorijiy mamlakatlarida va O'zbekistonda madaniy o'rmonlar ishlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati va O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining ahamiyatga ega bo'lgan qarorlari. O'rmon xo'jaligining iqtisodiyotdagi o'mi. Kursning hajmi va mazmuni, uni o'rganish tartibi. O'quv mashg' ulotlarining turlari.
M2	**2-mavzu. Daraxtlar va butalar turlarining meva hosil berishi**
	Daraxt va butalarning meva hosil berishi. Daraxtlarni meva va urug' berishining nazariy asoslari. Daraxt va butalarning hosilga kirish muddatlari. Daraxtzorlarning meva hosiliga ta'sir etuvchi omillar.
M3	**3-mavzu. Meva va urug' hosilini hisoblash**
	Urug' hosildorligini oldindan aniqlash va hisobga olish usullari. V.G.Kapper shkalasi. A.A.Karchagin shkalasi. Yalpi hisobga olish usuli, sinov shoxchasi usuli, model daraxt usuli va boshqalar. Meva va urug' lar hosilini hisoblash.
M4	**4-mavzu. O'rmon urug'lari bazasini tashkil etish**
	Daraxtlarning va daraxtzorlarning seleksion bahosi. Musbat daraxtlar, normal daraxtlar, manfiy daraxtlar. Navli urug'lar (saralangan). O'rmon urug'lari plantatsiyalari, doimiy va vaqtinchali uchastkalar. Vegetativ usulda barpo etilgan o'rmon urug'lari plantatsiyalari. Urug'idan barpo etilgan o'rmon urug'lari plantatsiyalari.
M5	**5-mavzu. O'rmon urug' larini tayyorlash**
	Meva va urug'larni tayyorlash. Urug'larning yetilishi. Urug'larni yig'ib-terib olish muddatlari. Daraxtzorlarni oldindan o'rganish. Meva va urug'larni yig'ib-terib olish texnikasi va tayyorlash usullari. O'zbekiston o'rmonlaridan, daraxtlardan o'rmon urug'lari ashyolarini yig'ib-terib olish.
M6	**6-mavzu. O'rmon urug'lari xom ashyosini qayta ishlash**
	O'rmon urug'lari xom-ashyolarini tozalash. O'rmon urug'lari xom-ashyolarini qayta ishlash. Qayta ishlashning nazariy asoslari. Igna bargli daraxtlarning qubbalaridan urug'ini ajratib olish. Quruq va ho'l mevalardan urug'larni ajratish. Urug'larni, tozalash va saralash.
M7	**7-mavzu. Urug'larning ekish sifatini aniqlash va ularni saqlash**
	O'rmon urug'larining sifati va uni aniqlash usullari. Pasportlashtirish, namuna olish va urug'larning ekish sifatini tekshirish. Urug'lar tozaligi, unuvchanligi, o'sish quvvati, hayotiy qobiliyati, sifatliligi, 1000 dona urug' og'irligi, namligi. Urug'larni saqlash va boshqalar.
M8	**8- mavzu. Urug'larni ekishga tayyorlash**
	Urug'lar o'sishining nazariy asoslari, urug'lardagi fiziologik, biokimyoviy jarayonlarning mohiyati va urug'lar turg'unligi. Urug'larning o'sishini stimullash usullarini asoslash. Urug'larni o'sishga tayyorlash usullari: stratifikatsiya, gidrotermik ishlov berish, kimyoviy ta'sir etish, mexanik ishlov berish, suvda eritish, stimulyator va mikroelementlar bilan ishlash. Dezinfeksiya, dizinseksiya. Ayrim daraxt va butalarni urug'larini ekishdan oldin tayyorlashning xususiyatlari.
M9	**9 - mavzu. O'rmon ko'chatzorlari**
	Ko'chatzor turlari, asosiy xo'jalik bo'limlari. Ularda yetishtiriladigan ko'chatlar. Ko'chatzorda almashlab ekish. Ko'chatzor maydonini hisoblash. Ko'chatzor uchun joy tanlash ko'chatzor hududini tashkil etish prinsiplari.
M10	**10-mavzu. Ko'chatzorga ajratilgan maydonni ekishga tayyorlash**
	Yerga ishlov berishning nazariy asoslari. Yerga ishlov berish tizimi va usullari. Hududni o'zlashtirish. Turli sharoitlarda yerga ishlov berishdagi agrotexnik talablar. Almashlab ekish dalalarida yerga ishlov berish sistemasi. Ko'chatzorda o'g'itlardan foydalanishning agrokimyoviy asoslari. O'g'it turlari, ularni berish usullari va me'yorlari.
M11	**11-mavzu. Ko'chatzorning urug' sepish bo'limi**
	Ko'chatzorning urug'dan ko'chat yetishtirish bo'limida ko'chat o'stirish agrotexnikasi. Ochiq gruntda ko'chat o'stirish agrotexnikasini biologik-ekologik asoslari. Ekish usullari, turlari va sxemalari. Optimal ekish meyori, ekish chuqurligi va zichligi. Ekilgan urug'lar unib chiqquncha ularni parvarishlash (mulchalash, tuproqni yumshatish, yovvoyi o'tlardan tozalash, yaganalash va boshqalar). Yosh ko'chatlarni parvarish qilish: - soyalash, oqlash, ildizlarini kesish, siyraklash, tuproqni yumshatish, sug'orish. Ayrim daraxtlarning ko'chatini yetishtirish xususiyati.
M12	**12-mavzu. Ko'chat yetishtirish bo'limi**
	Yirik ko'chatlarni o'stirish agrotexnikasining biologik asoslari. Yirik ko'chat yetishtirish maydonining turlari. Ekish oldidan tuproqni tayyorlash. Ko'chatlarni joylashtirish sxemalari, tuproqqa ishlov berish va ko'chatlarni parvarish qilish. Madaniy o'rmon barpo qilish va ko'kalamzorlashtirish uchun ko'chat parvarish qilish xususiyatlari. Daraxt va butalar ko'chatlarining tanasini shakllantirish.
M13	**13- mavzu. Daraxt va butalarni vetegativ ko'paytirish va uning ahamiyati**
	Daraxt va butalarni vegetativ usulida ko'paytirishning nazariy asoslari va uning ahamiyati. Qishki

	va yozgi qalamchalar bilan ko'paytirish. Ona daraxt va qalamchalarga talablar. Qishki qalamchalarni tayyorlash vaqti va texnikasi, ularni saqlash, ildiz olishini stimullashtirish. Yashil qalamchalarni ildiz oldirish vaqti va usullari. Issiqxonalar. Doimiy va vaqtinchalik inshootlar, ularni turlari, tuzilishi, mikroiqlim, ochiq ildizli ko'chatlarni parvarish qilish xususiyati.**Yopiq ildizli ko'chatlarni yetishtirish.**Yopiq ildizli ko'chatlarni yetishtirish va uni iqtisodiy ahamiyati. Yopiq ildizli ko'chatlarni parvarishlash, konteynerlarning turlari va ulardan foydalanish shartlari.
M14	**14 - mavzu. Ko'chatlarni texnik qabul qilish va inventarizatsiyalash**
	Texnik qabul qilish, inventarizatsiya, ularni o'tkazish vaqti va usullari. Ko'chatlarni o'sib turgan joyida hisoblash, ko'chatlarning sifat ko'rsatkichlari. Ko'chatlarni kovlab olish vaqti, usullari, saralash, vaqtincha ko'mib qo'yish usullari. 1 gektardan olinadigan ko'chatlarni soni. Ko'chatzor kitobini olib borish.
III. Amaliy mashg'ulotlar(A) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Urug' xom ashyosi. Asosiy o'rmon hosil qiluvchi daraxtlarning urug'lari
A2	Urug'lar fiziologiyasi.
A3	Urug' unishiga ta'sir etuvchi omillar.
A4	Oddiy fenologik kuzatishlar va hosilni aniqlash.
A5	Urug'larni terish, tozalash va transportirovka qilish jarayonlari.
A6	Urug'larni hisobga olish.
A7	Urug' sifati haqida xujjatlar.
A8	Ko'chatzor maydonini tashkil etish.
A9	Ko'chatzorlar maydonini hisoblash almashlab ekishni rejalashtirish.
A10	Urug'larni ekishga tayyorlash .
A11	Urug'larni ekish turlari, muddati, me'yorlari va sxemalari.
A12	Nihollar o'sib chiqish davrigacha agrotexnik ishlov berish. Urug' ko'chatlarni parvarishlash.
A13	Urug' ko'chatlarini saralash, hisoblash, vaqtincha ko'mib qo'yish.
A14	Asosiy daraxt va buta turlarining urug' ko'chatlarini yetishtirish.
A15	Ko'chat yetishtirish agrotexnikasi.
A16	Vegetativ ko'paytirish.
A17	Ko'chatzorda ishlatiladigan o'g'it turlari va ularning hisobi.
A18	Madaniy o'rmonlar barpo etish uchun maydonlarni o'rganish.
A19	Madaniy o'rmonlar barpo etish usullari.
A20	Madaniy o'rmonlar ekish sxemalari .
A21	Madaniy o'rmonlar joylashtirish usullari.
A22	Madaniy o'rmonlar barpo etiladigan maydonni ekishga tayyorlash.
A23	Madaniy o'rmonlarni ko'chat o'tqazish yo'li bilan barpo etish.
A24	Madaniy o'rmonlarni urug' sepish yo'li bilan barpo etish.
A25	Manzarali butalar
A26	Manzarali daraxt va buta ko'chatlarini parvarishlash
A27	Manzarali daraxt-butalarga shakl berish

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Madaniy o'rmonlar" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Daraxtzorlar barpo etishning nazariy asoslari
2.	O'rmon fondi maydonining kategoriyalari
3.	O'rmon barpo etish maydonlarini o'rganish
4.	Ko'chatlarni texnik qabul qilish va inventarizatsiyalash
5.	O'rmon urug'chiligining tashkiliy asoslari
6.	O'rmon urug'chilik uchastkalari
7.	O'rmon urug'chilik plantatsiyalari
8.	Texnik qabul qilish va uning me'yoriy hujjatlari
9.	O'rmon bilan qoplangan maydonlarga o'tkazish prinsiplari
10.	Madaniy o'rmonlar qator oraliqlaridan vaqtincha qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish uchun foydalanish.
11.	O'rmonlarni tabiiy ko'paytirish
12.	Kesilgan o'rmonlar turlari, kesilgan o'rmonlarda o'rmon barpo etish va etishtirish agrotexnikasi
13.	Madaniy o'rmonlar ishlarini olib borishda mehnat muhofazasi va texnik xavfsizliklar
14.	Madaniy o'rmonlarni o'rganish va tadqiq qilish
15.	Madaniy o'rmonlar sifatini oshirish
16.	Madaniy o'rmonlar barpo etish va yetishtirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish.

"Madaniy o'rmonlar" Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **"Madaniy o'rmonlar" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida *bakalavr*;** o'rmon urug'chilik ba'zalari, daraxt va butalarning bioekologik xususiyatlari, reproduktiv qobiliyati; urug'larda fiziologik jarayonlar va uning mohiyati, urug'lar turg'unligi; urug'ni ekishga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari; urug'chilik bazalari; ko'chatzorlarda almashlab ekish tizimi; ko'chatzorning parvarishlash bo'limi; ko'chat yetishtirishni o'rmon-iqtisodiy ahamiyati; madaniy o'rmon barpo qilishning nazariy va amaliy asoslari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;** daraxt va butalarning meva hosil berishiga ta'sir etuvchi biologik va ekologik omillarni; V.Kapper shkalasini, urug' hosilini aniqlash usullarini; urug' terish uchun daraxt tanlash, musbat, normal va manfiy daraxtlar; urug'larni tayyorlash va saqlash xususiyatlarini; urug'larni qayta ishlash va saqlash sharoitlarini;

ninabargli qubbali urug'lar va ularni qayta ishlash usullarini;
mevali va rezavor mevali urug'lar hamda ularni qayta ishlash usullarini;
o'rmon urug'larining ekish sifati ko'rsatgichlari va kategoriyalarini;
ko'chatzorlar uchun joy tanlash va ko'chatzor turlarini;
konteynerlarda ko'chat etishtirishni;
ko'chatlarni texnik qabul qilish va inventarizatsiya o'tkazishni;
ko'chat etishtirishning iktisodiy samaradorligini aniqlashni;
madaniy o'rmonlar borpo etish ishlarini rayonlashtirishni;
madaniy o'rmon barpo etishda maydonlarni o'zlashtirilish ketma-ketligi;
asosiy, yordamchi daraxtlar va butalar, ularni o'rmondagi vazifasini;
tog' qiyaliklarida o'rmon barpo etish texnologiyasini;
madaniy o'rmonlarni urug' idan yoki ko'chat usuli bilan barpo qilishni;
madaniy o'rmonlarga ishlov berish, xatolarni tuldirish va tiklashni;
madaniy o'rmonlarni texnik qabul qilish va inventarizatsiya o'tkazishni;
madaniy o'rmonlarni o'rmon bilan qoplangan maydonga o'tkazishni;
tez o'sar daraxtlarni etishtirishni;
madaniy o'rmonlarda kesish va parvarishlash ishlarini;
madaniy o'rmonlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblashni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
yerga ishlov berish;
urug'larni ekishga tayyorlash;
ko'chatzorlarda almashlab ekish;
generativ va vegetativ ko'paytirish;
organik va mineral o'g'itlar hamda ulardan foydalanish;
urug' ko'chatlarni parvarishlash bo'limiga o'tkazish;
yirik ko'chatlarni yetishtirish;
ko'chatlarni yopiq yerda yetishtirish **bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;**
daraxt va butalarning meva hosil berishini oldindan bashorat qilish;
urug'larni tayyorlash va qayta ishlash;
daraxt turlarini vegetativ ko'paytirish;
parvarishlash bo'limiga ko'chatlarni yetishtirish;
madaniy o'rmonlar borpo etishni loyihalashtirish;
- madaniy o'rmonlarni parvarishlash va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash **yuzasidan malakalariga ega bo'lishi kerak**

4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruxlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar

1. S.M.Ablayev Ya.Yuldoshev "Madaniy o'rmonlar" T-2008
2. Qalandarov M.M. "Manzarali bo'g' dorchilik" Darslik. –Toshkent, 2014. -234 b.
3. A.Qayimov "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish" Darslik. Toshkent, 2013

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. «O'rmon to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Oliy majlisining 14 sessiyasining materiali. T.1999 y.
2. Аблаев С.М. Культура фисташки в Средней Азии. Учебник. -Т. 1992. -200 с.
3. Кочерга Ф.К. Типы лесных культур для Узбекистана. Учебное пособие. Ташкент, 1984. -157 с.
4. Курнаев С.Ф. Лесорастительное районирование. Методические указание. -М., Наука. 1983. -82 с.. 1983.
5. Новоселсева А.И., Родин А.Р. Справочник по лесным культурам. -М., 1983. -308 с.
6. Редко Г.И., Родин А.Р., Трещевский Н.В. Лесные культуры. Учебное пособие. -М., 1985. -105 с.
7. Родин А.Р., Родин С.А. Лесные культуры и защитное лесоразведение. -М. ИздМГУ Леса, 1996. -112 с.
8. Xonazarov A.A., Ergashov S.F., Yuldashov Ya.X. O'rmon yetishtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, «Ilm-Ziyo», 2005. -132 b.
9. Xonazarov A.A. O'rmonchilar uchun qo'llanma. –Toshkent, «Mehnat», 1992. - 128 b.

Axborot manbaalari

4. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
5. www.zivonet.uz –Ta'lim portali.
6. www.natlib.uz – O'zbekiston milliy kutubxonasi portali.
7. www.rusplant.ru– портал журнал «Физиология растений».
www.floranimal.ru –портал энцеклопедия природы.

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Yokubov Y.–Sharof Rashidov nomidagi SamDU, «Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar» kafedrasi assistenti.
9.	**Taqrizchilar:** M.Abduraximov – SamDU professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor. N.Xalilov–Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:
Rais – Sh.T.Xoliqulov

Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi mudiri: **Sh.T.Xoliqulov**

Institut uslubiy kengash raisi: **Sh.Mamasov**

Instituti direktori: **T.F.Rajabov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A.S.Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi uchun "Madaniy o'rmonlar" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan dasturida nazarda tutilganidek, talabalar yetuk o'rmonlarda daraxt kesishning nazariy tamoyillari, tashkiliy-texnik elementlari, qo'llash sharoitlari va mavjud usullarini qiyosiy baholash, daraxt kesish texnikasi va texnologiyalariga qo'yiladigan talablari, o'rmonlarning tabiiy qayta tiklanishiga ko'maklashish bo'yicha mavjud chora-tadbirlar va ularni qo'llash sharoitlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, o'rmon xo'jaligi faoliyatini loyihalashda o'rmonlarning barqarorligi va mahsuldorligini oshirish usullarini qo'llashni, sanoatda mavjud bo'lgan hududiy standartlar asosida o'rmon xo'jaligi muammolarini hal qilish usullarini qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi, o'rmonni parvarish qilishning turli usullarini amalga oshirish tamoyillari, tashkiliy-texnik elementlari va usullari, shuningdek, oraliq kesishni tashkil etish va texnologiyasi masalalari, yetilgan o'rmonlarni kesish, oraliq kesishni rejalashtirish usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi, daraxt tanasi o'sishini diametrlari, yillik xalqalar soni bo'yicha tahlil qilish, daraxt tanasi o'sishini balandligi bo'yicha tahlil qilish, daraxt tanasi o'sishini hajmi bo'yicha tahlil qilish, daraxt tanasi o'lchamlari o'sishining tahlili, o'sib turgan daraxt tanasi o'lchamlarini har xil usulda hisoblash yuzasidan malakalariga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabalari uchun Madaniy o'rmonlar fani 7- semestrda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mavzulari nazariy jihatdan to'g'ri tuzilgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berib tuzilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularni bajarishlari uchun yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullaridan foydalanib bajarishlari a'lohida keltirib o'tilgan. Fan dasturi mavzular bog'liqligi, maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan sillabus tayyorlash uchun qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni 60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari Madaniy o'rmonlar fanidan tuzilgan fan dasturidan foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrasi professori **M.K.Abduraximov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi uchun "Madaniy o'rmonlar" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan dasturida nazarda tutilganidek, talabalar yetuk o'rmonlarda daraxt kesishning nazariy tamoyillari, tashkiliy-texnik elementlari, qo'llash sharoitlari va mavjud usullarini qiyosiy baholash, daraxt kesish texnikasi va texnologiyalariga qo'yiladigan talablari, o'rmonlarning tabiiy qayta tiklanishiga ko'maklashish bo'yicha mavjud chora-tadbirlar va ularni qo'llash sharoitlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, o'rmon xo'jaligi faoliyatini loyihalashda o'rmonlarning barqarorligi va mahsuldorligini oshirish usullarini qo'llashni, sanoatda mavjud bo'lgan hududiy standartlar asosida o'rmon xo'jaligi muammolarini hal qilish usullarini qo'llashni bilishi. O'rmon xo'jaligida urug' chilikni va ko'chatchilikni yo'lga qo'yishni, joy sharoiti va daraxtlar biologiyasiga asoslanib madaniy o'rmonzorlarni barpo etishni o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, madaniy o'rmon barpo etish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllarnitirish vazifalarini bajaradi

60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabalari uchun Madaniy o'rmonlar fani 7- semestrda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mavzulari nazariy jihatdan to'g'ri tuzilgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berib tuzilgan. Unda talabalar mustaqil ta'lim mavzularni bajarishlari uchun yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullaridan foydalanib bajarishlari a'lohida keltirib o'tilgan. Fan dasturi mavzular bog'liqligi, maqsadi, vazifasi, fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan sillabus tayyorlash uchun qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni 60820100-O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi talabalari Madaniy o'rmonlar fanidan tuzilgan fan dasturidan foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori **N.Xalilov**

TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Xo. Sirdar ta'lim boshlig'i